**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining**
**2018 yil uchun korporativ boshqaruv tizimini baholashning natijasiga koʻra “Comply or explain”(rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyili boʻyicha axboroti**

“Korporativ boshqaruv Kodeksi” ning 11-bandida Kodeksning muayyan tavsiyalariga rioya etish imkoni boʻlmagan taqdirda, jamiyat “somply or explain” (rioya qil yoki tushuntir)  xalqaro tamoyiliga rioya qilgan holda uning sabablarini toʻliq oshkor qilishi belgilangan.

Ma’lumotlar “somply or explain” (rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyiliga rioya qilingan holda, ommaviy axborot vositalarida, Bankning va “Toshkent” RFB rasmiy korporativ veb-saytlarida hamda Oʻzbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligining maxsus veb-cayti negizidagi Korporativ axborot yagona portalida e’lon qilinishi koʻzda tutilgan.

1. “Korporativ boshqaruv Kodeksi”ning 12-band 4-xatboshisida jamiyat aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida ijroiya organining mukofot va kompensatsiyalari miqdorini oshkor etish belgilangan.

Bank mehnatga haq toʻlashning yagona tarif setkasini Bank boshqaruvi a’zolarining mehnatiga haq toʻlashni tashkil etish uchun asos sifatida qabul qiladi. Bank boshqaruvi a’zolariga lavozim okladi, lavozim okladiga ustama haq, mukofot, mehnat natijalari bilan bogʻliq boʻlmagan bir yoʻla beriladigan mukofot va kompensatsiyalarni belgilash Bank ichki normativ hujjatlari, jamoa shartnomasi va tarmoq kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Ushbu ma’lumotlar Bank saytida oshkor qilinmagan.

2. “Korporativ boshqaruv Kodeksi”ning 15-band 8-xatboshisida jamiyat tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yigʻilishlarida oʻz vakillariga jamiyat nomidan ovoz berish tartibini belgilash talab etilgan.

Bank tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yigʻilishlarida Bank nomidan ovoz berish tartibi belgilanmagan.